

ARTUR SHOPENGAUER FALSAFASIDA AXLOQIYLIK TALQINI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715628>

Sadullayev Sardor Saydiganiyevich

O'zMU mustaqil izlanuvchisi

tel.: +99890 981-48-80;

e-mail: manaviy@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Artur Shopengauerning falsafasi, xususan, uning iroda, axloq va taqvodorlik tushunchalariga bag'ishlangan. Shopengauer nuqtai nazaridan iroda ongsiz va ko'r-ko'rona kuch sifatida dunyoning asosiy yaratish tamoyilidir. U axloqiy ongni hamdardlikka asoslaydi, bu esa insonlarning birdamligi va xudbinlikni yengishning negizi deb hisoblanadi. Shopengauerning ezgulik va hayot irodasi o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlari tahlil qilinadi: axloqiy inson iztiroblarni bilish orqali taqvodorlikka intiladi, bu esa irodani inkor qilish va nihoyatda falsafiy tushkunlik yoki oliy xotirjamlikka olib boradi. Maqolada Shopengauerning o'z-o'zini o'ldirish, palingeneziya va nirvana haqidagi qarashlari ham yoritilgan. Ushbu tahlil mutafakkirning pessimistik dunyoqarashi va axloqiy falsafasining chuqur ma'nolarini ochib beradi.

Tayanch tushunchalar. Iroda, ong (shuur), tasavvur, estetik mushohada, axloqiy ong, hamdardlik, adolat, insonsevarlik, irodani so'ndirish, taqvodorlik, palingeneziya, ekstaz, falsafiy pessimizm.

Kirish. Artur Shopengauer – XIX asrning eng murakkab va ta'sirchan faylasuflaridan biri bo'lib, uning falsafasi dunyo va inson mavjudligining asosiy kuchlari haqidagi o'ziga xos qarashlari bilan ajralib turadi. Maqolada Shopengauerning "iroda" tushunchasi, uning ongsiz tabiati va axloqiylik bilan bog'liq munosabatlari ko'rib chiqiladi. Uning fikricha, iroda dunyoning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib, u ko'r-ko'rona va boshqarib bo'lmaydigan xususiyatga ega. Axloqiy ong esa hamdardlikka asoslanadi, bu ezgulik va insonsevarlikning manbasi sifatida ko'rinadi. Biroq, Shopengauerning pessimistik dunyoqarashida axloqiy inson hayot irodasining iztiroblari bilan kurashishga majbur bo'lib, taqvodorlik va irodani inkor qilish orqali oliy maqsadlarga erishishga intiladi. Ushbu tahlil Shopengauer falsafasining axloq, ezgulik va inson taqdiri bilan bog'liq muhim jihatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, uning o'ziga xos paradoks fikrlariga chuqurroq nazar tashlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-tahliliy, komparativistik, mantiqiy-tahliliy, falsafiy-ontologik, gnoseologik, aksiologik (qadriyatli) tahlil, axloqiy-etik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada Shopengauer falsafasi tahlilida turli manbalardan foydalanilgan bo'lib, ular Shopengauerning dunyoqarashi, iroda ta'limoti, axloqiy qarashlari va falsafiy metodologiyasini yoritishda muhim ilmiy

asos bo'lib xizmat qilgan. Falsafa tarixi va Shopengauer haqidagi fundamental manbalar maqolada Shopengauerning asosiy asarlari va u haqdagi tadqiqotlar (masalan, «Iroda va tasavvur dunyosidan» olingan g'oyalar) markaziy o'rin tutadi. Bu manbalar Shopengauer falsafasining asosi bo'lgan «iroda» tushunchasini, uning bilish nazariyasi va etikasini tahlil qilishda dastlabki ma'lumot manbai bo'lgan. Immanuil Kant falsafasi va uning ta'siriga oid adabiyotlar, Kantning transsendental idealizm ta'limotiga oid adabiyotlar, Shopengauer falsafasining manbai va tayanch nuqtalaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu adabiyotlar orqali Shopengauerning Kantga munosabati va undan olingan ilhom tahlil qilingan. Buddizm va sharq falsafasiga oid manbalar Shopengauerning irodaga qarshi kurash g'oyalarini yoritishda sharq falsafasi (xususan, buddizm va induizm) haqidagi adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Bu manbalar Shopengauer falsafasidagi «nirvana», «nafsnı yengish» tushunchalarining ildizlarini ochib bergan. Zamonaviy falsafiy tahlillar va tadqiqotlar ilmiy maqolalar, monografiyalar va mualliflik ishlari orqali Shopengauerning zamonaviy falsafada tutgan o'rnı, uning ta'siri va tanqidiy tahlili yoritilgan. Bu turdagi adabiyotlar undagi irratsionalizm, pessimizm va ekzistensial yo'nalishlarnı anglashga yordam beradi. Axloq va etika bo'yicha falsafiy adabiyotlar axloqiy qarashlarnı tahlil qilishda etika nazariyasiga oid adabiyotlar, jumladan, hamdardlik va irodaga qarshi kurash g'oyalarini falsafiy jihatdan asoslovchi manbalar qo'llangan. Mazkur adabiyotlar matndagi g'oyalarnı ilmiy asosda yoritish, Shopengauer falsafasining mohiyatini chuqur tushunish va uning falsafa tarixidagi o'rnini aniqlashda muhim metodologik va nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Ular nafaqat tarixiy manba sifatida, balki zamonaviy falsafiy tahlilda ham muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. “Lekin axloqiylik Shopengauerning falsafasi doirasida mumkinmi? Shopengauer nuqtai nazaridan “iroda ongsizdir”. U mutlaq birinchi asos dunyoning va xususan inson borlig'ining ilk yaratish tamoyilidir. Unda spontan (o'z-o'zidan) rivojlanish manbasi bor. Zero, Shopengauer fikriga ko'ra, iroda, o'z-o'zidan, ibtidosidan ongsiz va ko'r-ko'ronadir. Uning falsafasiga ko'ra, aynan ana shu ko'r-ko'rona, boshqarib bo'lmaydigan, jilovlanmagan kuch-quvvat hayot voqeliklarini yaratishga turtki beradi, mavjud narsalarnı ongsiz iroda vujudga keltiradi. Butun dunyo tarixining yo'nalishi – tabiiy, jonsiz hodisalarning paydo bo'lishidan tortib, aqlli mavjudotlarning yaratilishigacha, ya'ni anglash va o'z-o'zini anglash fazilatiga ega bo'lganlar – ongsiz iroda tufayli amalga oshadi, u ichki rivojlanish jarayonida, voqelikka aylanishida bir qancha pog'onalardan o'tadi. Inson tomonidan atrof olamni bilish jarayoni esa, Shopengauerga ko'ra, tasavvur orqali inson ongiga ma'lum bo'ladi. Jumladan, bilishning dastlabki nuqtasi narsada ham, inson ongida ham emas, balki tasavvurda bo'ladi. Tasavvur har yerda va har doim mavjud irodaning ta'sirida insonning bilish qobiliyati rivojini ta'minlaydi, rivojlantiradi” [1; 282]. Estetik mushohadadan ko'ra yakkaleshishni yanada qat'iyroq ko'rsatadigan hodisa Shopengauerning fikricha, bu axloqiy ongdir. Axloqning yagona negiziy manbasi bu hamdardlikdir. Hamdardlik shunday hodisaki, inson o'zganing dardini o'zinikidek qabul qiladi. Hamdardlikni metafizik

tushunish, Iroda olamida insonlarning birdamligini bildiradi. Aslida o'zganing dardini o'zimmikiday qabul qilib, men ham unga o'xshagan odam ekanligimdan dalolat beradi. Bunday holatni anglash xudbinlikni yemiradi. Shopengauerning fikriga ko'ra, hamdardlik adolat va insonsevarlik orqali ezgulikning ikki asosiy negizini tashkil qiladi. Insonsevarlik o'zgalarning dardini yengillashtirish faoliyatiga chorlaydi, adolat bo'lsa ularga yomonlik qilmaslik talabini qo'yadi. Qolgan ezguliklar shu ikkisidan kelib chiqadi.

Dastlab qaraganda, Shopengauerning ezgulikka yuqori baho berishi, uning hayotga bo'lgan Irodasi bilan uyg'unlashmaydi. Zotan, axloqiy inson o'zgalarning dardini yengillashtiradi, ularni baxtli qilishga intiladi, bu bilan hayot Irodasini kuchaytiradi. Lekin mutafakkirning fikriga ko'ra, axloqiy inson to'liq holda aqlli insonlarning hayoti iztiroblarga to'la ekanligini biladi. Xudbin inson esa o'z hayotini yaxshilashga urinadi, o'zgalarning dardini unutadi va ko'tarinki ruhiyatni ta'kidlaydi. Axloqiy inson uchun esa bu yo'l butunlay yopiq. Ertami kechmi u falsafiy tushkunlik pozitsiyasini egallaydi, bundan qat'iy qutulish choralari izlaydi.

Bunday radikal yo'l insonni taqvodorlik amaliyotiga yetaklaydi, ya'ni o'zining shaxsiy irodasi bilan kurashga chorlaydi. Shopengauer fikricha, irodani qisman namoyon bo'lishi "qo'shilish damlarida" [1; 152] amalga oshadi. Shuning uchun ham irodani o'z-o'zini inkoridagi birinchi qadam tanho o'tishlik (oila qurmaslik) yo'lini tanlash orqali sodir bo'ladi. Taqvodorlikning keyingi qadami, "ongli ravishda qashshoqlikka mahkum qilishdan iborat" [1; 325]. Idealda taqvodor o'zini ochlikka mahkum qilishi zarur. Ochlik – o'z-o'zini o'ldirishning yagona yo'lidir. Albatta, bunday ta'kidga ko'ra, Shopengauer o'z-o'zini o'ldirishni yoqlaganday bo'lib chiqadi. Aslida mutafakkir bunday pozitsiyada turmaydi. "Klassik" tarzda o'z-o'zini o'ldirishni Shopengauer olamiy Irodaning ayyorligi sifatida qabul qiladi. Gap shundaki, o'z-o'zini o'ldiruvchi hayot irodasidan voz kechmaydi, balki hayotdan voz kechadi. U hayotni sevadi, lekin bu hayotda nimadir unga to'sqinlik qiladi, shuning uchun ham hayot bilan hisob-kitob qiladi. Bu paradoksal holat. Vaziyatni mavjudlikni o'limga mahkumlik yumshatadi.

O'limga maqumlik mavzusi Shopengauerni juda qiziqtiradi. Tana o'lganidan so'ng "shaxs o'z xotiralari bilan yaxlitligini" saqlab qolishi mumkin degan ta'limotga u butunlay qo'shilmaydi. Chunki Shopengauer shaxsiy sifatlarni miyaning faoliyati bilan bog'laydi. Miyaning o'lishi shaxsning yo'qolishiga ham olib keladi. Boshqa tomondan, "har bir insonni aqliy faoliyati" tanaviy xususiyatga ega emas. Shuning uchun ham, tananing yemirilishidan keyin, bu faoliyat saqlanib qoladi. Tashqi ko'rinishdan Iroda intellektsiz qoladi, bilish irodasi bo'ladi, lekin amalga oshmaydi. Vaqt o'tishi bilan u boshqa qobiqqa kiradi.

Amaliy nuqtai nazardan yangi shaxs eskisini umuman takrorlamaydi. Qisman bu vaqtda sodir bo'ladi. Vaqt yakkalashish tamoyili bo'lib xizmat qiladi. Lekin shaxslar o'rtasidagi aloqa muqarrar. Albatta, Shopengauer metampsixoz (ruhni ko'chib yurishi) haqida fikr yuritishdan voz kechadi, "ya'ni ruhni boshqa tanaga butunlay o'tishi"ni rad etadi. O'z nazariyasini "palingeneziya" deb ataydi.

Palingeneziya bu – “individdning parchalanishi va qayta shakllanishi, bunda iroda qoladi va yangi mavjudot obraziga kiradi, yangi intellektga ega bo‘ladi” [2; 214].

Shunda o‘z-o‘zini o‘ldirish oydinlashadi. Oddiy o‘z-o‘zini o‘ldiruvchi hayotni inkor qiladi, lekin irodani emas. Shuning uchun ham uning mulohazakor xususiyati o‘zini yana namoyon qiladi. Taqvodor esa hayot irodasini tobora so‘ndirib boradi va qayta tug‘ilish charxpalagidan chiqib ketadi.

Lekin irodadan voz kechgan insonni nima kutadi? Bu albatta, juda murakkab savol. Bir narsa ayonki, dastlab taqvodorni hayoti iztirobga to‘ladi, u ongli ravishda unga intiladi, bu faqat iztiroblar bilan cheklanmaydi, “zero, kimda hayot irodasini so‘ndirish tug‘ilgan bo‘lsa, ... ichki quvonch va samoviy xotirjamlikka ega bo‘ladi” [2; 331]. Tasavvur qilish mumkinki, hayot irodasining butunlay so‘nishi inson mushohadaviy tabiatida yangi yorqin nurni porlatadi. Hayot irodasidan voz kechgan holatni “ekstaz, zavqlanish, Xudo bilan birlashish” [2; 348] ga qiyoslash mumkin. Zotan, bu nofalsafiy sohaga aylanadi: “Falsafa pozitsiyasida qolib, biz salbiy bilim bilan qoniqishimizga to‘g‘ri keladi” [2; 348].

Shopengauerning bu murojaati tasodif emas: “Men, - deb yozadi u, - o‘z falsafamning so‘ngida illyuminizm sohasiga o‘tganman, bu aniq dalildir. Lekin unga qadam qo‘yishdan o‘zimni saqlaganman ... imkon boricha obyektiv ratsionalistik chegara darajasida qolganman” [3; 10]. Irodaning holati haqidagi falsafiy javob shundan iboratki, uni qandaydir Hech nima sifatida fikrlash kerak. Aynan falsafa Hech nimani mutlaq sifatida emas, balki nisbiy ma’noda talqin qiladi, bunda illyuminativ tajribani qo‘llash kerak bo‘ladi. Zero, dunyo narsa o‘zida sifatida hayot Irodasiga aynan mos tushmaydi. Agar bu shunday bo‘lsa, uning inkori sof Hech nimani berar edi. Hayotda narsa o‘zidani Iroda deb atalishi, uning namoyoniga ko‘ra aytiladi. Uni boshqa sifatlari ham bo‘lishi mumkin. Hayot irodasini so‘nishi boshqa xususiyatlarni ochib yuborishi mumkin. Falsafa shuni ko‘rsatadiki, ana shu xususiyatlarni ochishni subyekt-obyekt kategoriyalari orqali fikrlab bo‘lmaydi. Agar illyuminativ tajribadan foydalanilsa, unda subyekt va obyekt o‘rtasidagi farqlar yo‘qoladi.

Va-nihoyat, falsafa shuni tushuntiradiki, narsa o‘zidani yakka irodaning inkori sifatidagi namoyoni olamiy Irodani so‘nishi degani emas. Yakka iroda narsa o‘zida sifatida – Irodaning qisman bo‘lingan bir parchasidir. Boshqacha aytganda, pir faqat o‘zi nirvanaga erishadi, butun olam emas. Zero, nirvanaga faqat pirlargina erishmaydi. Bunga qahramonlar ham musharraf bo‘ladi. Ular umumiy ish uchun kurashadilar, ezgulikka xizmat qiladilar. Shopengauer o‘zini qahramon deb hisoblagan. Faylasuf pir bo‘lishi shart emas. Uning ishi – haqiqatni ochishdan iborat, unga amal qilish uchun kuch qolmaydi.

Xulosa. Artur Shopengauer falsafasi doirasida axloqiylik tushunchasi insonning ongi, irodasi va iztiroblari bilan chambarchas bog‘liq. Uning ta’limotiga ko‘ra, dunyo va inson mavjudligining asosiy manbai — ongsiz va ko‘r-ko‘rona Iroda hisoblanadi. Insonning bilish qobiliyati esa tasavvur orqali shakllanadi va aynan tasavvur ongning paydo bo‘lish nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shopengauerga ko‘ra, axloqiy ong — estetik mushohadadan ham kuchliroq,

chunki u insonni boshqalarning dardiga hamdard bo'lishga undaydi. Hamdardlik — axloqning asosiy manbaidir, u adolat va insonsevarlikni vujudga keltiradi. Ammo bu axloqiy holat insonni hayotga nisbatan falsafiy tushkunlikka yetaklaydi, chunki aqlli inson hayotning azob-uqubatlarini anglab yetadi. Shopengauer irodani so'ndirishni axloqiy yechim sifatida ko'radi. U taqvodorlikni, ya'ni o'z irodasiga qarshi kurashishni inson kamolotining oliy nuqtasi deb hisoblaydi. Bunday inson o'z xohish-istaklaridan voz kechadi, hatto ochlik orqali o'zini irodadan xalos etishga intiladi. Uningcha, oddiy o'z-o'zini o'ldirish — bu faqat hayotdan voz kechish bo'lib, irodadan voz kechish emas. Shuning uchun haqiqiy axloqiy inson irodani so'ndirish yo'lini tanlaydi va qayta tug'ilish (palingeneziya) charxpalagidan chiqib ketadi. Natijada, Shopengauer falsafasida axloq — irodani so'ndirish, hamdardlik orqali ezgulikka intilish va faqat shunda inson “ichki xotirjamlik va ilohiy ekstaz” holatiga yetishi mumkinligi bilan ifoda etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Copleston F. A History of Philosophy // Vol. 7. Modern Philosophy From the Post-Kantian Idealists to Marx, Kierkegaard, and Nietzsche. - New York-London-Toronto-Sydney Auckland, 2004.
2. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. –Т. 1. – М.: Инфра, 1999-2001.
3. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. –Т. 5. – М.: Инфра, 1999-2001.
4. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. – М.: Эксмо, 2006.
5. Кант И. Критика чистого разума. – Тошкент: Фан, 2004. – 512 б.
6. Руссо Ж.-Ж. Инсон табиати ва тенглик ҳақида. – Тошкент: Университет, 2003.
7. Ницше Ф. Воля к власти. – М.: АСТ, 2010.
8. Соловьёв В.С. Основы философии морали. – Санкт-Петербург: Лань, 2002.
9. Буддизм асослари ва фалсафаси / Таҳрир: Рахимов Х. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
10. Фалсафа тарихи / Таҳрир: Комилов Н. – Тошкент: Фан, 2010. – 624 б.
11. Этика ва ахлоқ назарияси асослари / Таҳрир: Сафаров Б. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2012.
12. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue-2S6, July, – P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
13. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.
14. Рузматова, Г. (2014). Рухият таҳлили фалсафаси. –Тошкент: Нишон-ношир, 2014.
15. Ruzmatova, G.M. (2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop

jurnal. – 2023. 11-12-sonlar. – B. 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.

16. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the Oriental and Western anthropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>